



(2019-yil 1-may holatiga)

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

**Ro'yxatdan o'tgan
21780 ta.**

**Faoliyat ko'rsatayotgan
20750 ta.**

**Yangi tashkil etilganlar
2896 ta.**

2019-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 2896 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1694 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4390 taga, faoliyat ko'rsatayotganlarning soni esa, 4260 taga o'shdı.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-may holatiga)

**21780 tani
tashkil etdi**

**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar
soni, birlikda**

O'tgan yilning shu
davriga nisbatan
o'sish sur'ati




25,2%



2019-yilning 1-may holatiga 21780 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 25,2 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 23,6 % savdo, 15,5% sanoat, 10,0 % qurilish, 10,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 6,1 % tashish va saqlash, 2,5 % sog'lqnini saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,0 % axborot va aloqa hamda 24,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (5150 ta) savdo, (3383 ta) sanoat, (2176 ta) qurilish, (2171 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (1544 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (1324 ta) tashish va saqlash, (539 ta) sog'lqn ni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (218 ta) axborot va aloqa, hamda (5275 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni **20750** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4260ta (25,8 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %
(dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari)



Savdo



Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



Qurilish



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish




Axborot va aloqa



Boshqa turlar

Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'p Buxoro shahri (6737 ta), G'ijduvon (2188 ta), Romitan (1631 ta), Buxoro (1478 ta), Jondor (1423 ta) va Shofirkon (1256 ta) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qorovulbozor (396 ta), Olot (627 ta)tumanlari hamda Kogon shahri (741 ta)da korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-aprel oylarida 2896 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1694 taga ko'pdir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning yillar kesimida
soni, birlikda

o'sish surati, %da



Yangi tashkil etilgan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (1063 ta), sanoat (684 ta), qurilish (258 ta) va boshqa turlar (259 ta)da, eng kami esa axborot va aloqa (14 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (34 ta), hamda tashish va saqlash (110 ta) faoliyat turlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Savdo

1063



Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar

255



Sanoat

689



Tashish va
saqlash

110



Qurilish

258



Axborot va
aloqa

14



Qishloq, o'rmon va
baliq xo'jaligi

219



Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmatlar
ko'rsatish

34


Boshqa
turlar



259

Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Buxoro shahri (878 ta) hamda G'ijduvon (370 ta), Romitan (247 ta) va Jondor (226 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qorovulbozor (59 ta), Kogon shahri (96 ta) va Olot (100 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Tijorat korxonalarini

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-may holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan
tijorat korxona va
tashkilotlar soni
17507 tani tashkil etdi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat
yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiyligi soni, birlikda

Mas'uliyati
cheklangan
jamiyati




Xususiy
korxona




Oilaviy
korxona




Unitar
korxona



Aksiyadorlik
jamiyati



Boshqalar



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



207 ta

Faoliyat
ko'rsatayotgan
xorijiy sarmoya
ishtirokidagi
korxonalar soni.

O'tgan yilning shu davriga
nisbatan 107,0 % o'sgan.

Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq
Respublikasi, Koreya Respublikasi, Turkiya
Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi
hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-may holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 207 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 107 taga yoki 107,0 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Turkiya Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda



Rossiya	38
Turkiya	30
Xitoy	24
Qozog'iston	7
Koreya	15
Boshqa davlatlar	



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda






Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 136 tasi qo'shma, 71 tasi esa, xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahrida 108 ta (jamidagi ulushi (52,2 %), Kogon tumanida 16 ta (7,7 %) va Peshku tumanida 14 tani (6,8 %) tashkil etgan.

Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Olot tumanida 3 ta (1,4 %), Qorovulbozor tumanida 4 ta (2,0 %), Qorako'l, Shofirkon va G'ijduvon tumanlarida 5 ta (2,4 %) tashkil etgan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinish turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa tashish va saqlash, qurilish hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



1


2019-yilning yanvar-aprel oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 53 tani tashkil etgan.

Bu ko'ssatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 44 taga ko'paygan.



Turkmaniston Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 16 ta, Rossiya Federatsiyasi - 10 ta, Turkiya Respublikasi - 8 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 5 ta, Janubiy Koreya Respublikasi va Eron Islom Respublikasi - 3 ta dan, Hindiston Respublikasi - 1 ta va boshqa davlatlar -7 tadan korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 18 ta sanoat, 8 ta qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 16 ta savdo, 7 ta qurilish, 2 ta sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 2 tasi yashash va ovqatlanish faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-may holatiga)



2019-yil 1-may holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 17370 tani tashkil etdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 30,3 % ga oshgan.

2019-yil yanvar-aprel oylarida 2802 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 1801 taga ko'proqdir.



•Kichik tadbirkorlik subyektlarining eng katta ulushi

•Kichik tadbirkorlik subyektlarining eng kichik ulushi

•Buxoro shahri
33,8 %

•Qorovulbozor tumani
1,8 %

•G'ijduvon tumani
10,6 %

•Olot tumani
2,7 %

•Romitan tumani
8,1 %

•Kogon shahri
3,5 %

•Buxoro tumani
7,2 %

•Vobkent tumani
4,3 %

•Jondor tumani
6,8 %

•Qorako'l tumani
4,6 %


•Peshku tumani
5,8 %

•Kogon tumani
5,1 %

• Shofirkon tumani
5,7 %






Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 17370 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 4844 ta (27,9 %) - savdo, 3207 ta (18,4 %) - sanoat, 2044 ta (11,8 %) - qurilish, 1960 ta (11,3 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1474 ta (8,5 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 1247 ta (7,2 %) - tashish va saqlash, 450 ta (2,6%) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 191 ta (1,1 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 1953 tasi (11,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi ● Sanoat ● Qurilish ● Savdo ● Tashish va saqlash
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ● Axborot va aloqa
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish ● Boshqa turlar

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 1063 ta (37,9%), sanoat 683 ta (24,4 %), qurilish 258 ta (9,2 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 254 ta (7,8 %) tashkil etilgan. Eng kam axborot va aloqa 14 ta (0,5 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 33 ta (1,2%) hamda tashish va saqlashda 110 ta (3,9 %) tashkil etilgan.


Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni, birlikda



Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Buxoro shahri (844 ta), G'ijduvon (365 ta), Romitan (242 ta) va Jondor (222 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qorovulbozor (57 ta), Kogon shahri(96 ta) hamda Olot (97 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

(1-may holatiga)




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda

2019-yil 1-may holatiga



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 30,0 yoki 391 tasi sanoat, 30,7 % yoki 400 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,9 % yoki 247 tasi savdo, 10,2 % yoki 133 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,5 % yoki 6 tasi axborot va aloqa, 2,2 % yoki 29 tasi sog'lqnini saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,9 % yoki 12 tasi qurilish, 0,9 % yoki 12 tasi tashish va saqlash hamda 5,7% yoki 75 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Buxoro viloyati
statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish
bo'limi.
Tel.:71-230-83-20(21)**